SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OTA-ONALIK MUNOSABATLARI SHAKLLANISHIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI

Jonpo'lotova Manzura Jahonovna
BuxDU tadqiqotchisi

Qabul qilindi: 13.10.2025
Ko'rib chiqildi: 14.10.2025
Tasdiqlandi: 15.10.2025

Kalit so'zlar:
at-Termiziy, Imom G'azzoliy, Al-Farobiy, Kaykovus.

Keywords:
at-Termizi, Imam Ghazzali, Al-Farabi, Kaykovus

Ключевые слова: ат-Термизи, Имам Газали, Аль-Фараби, Кайковус.

Annotatsiya. Oila bu, ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalaydigan qo'rg'ondir. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadigan maskan hisoblanadi. Ushbu tezisda Sharq mutafakkirlarining ota-onalik munosabatlari shakllanishidagi psixologik qarashlari haqida fikr yuritiladi.

Annotation. Family is a place where children are raised by parents, guardians or adults. It is a place that plays an important role in the comprehensive development of the younger generation. This thesis discusses the psychological views of Eastern thinkers on the formation of parental relationships.

Аннотация. Семья — это место, где дети воспитываются родителями, опекунами или взрослыми. Она играет важную роль во всестороннем развитии подрастающего поколения. В данной диссертации рассматриваются психологические взгляды восточных мыслителей на формирование родительских отношений.

Kirish. Oila bu, ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalaydigan qo'rg'ondir. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadigan maskan hisoblanadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazolardan iborat bo'ladi.

Endi ushbu masala bo‘yicha sharqning bir qator qomusiy olimlarining qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, sharq mutafakkirlaridan Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Bexbudiy, Cho‘lpon, Fitrat kabi mutafakkirlar asarlarida oiladagi munosabatlar, komil inson qilib tarbiyalash muammolari o‘rin tutishi ta’kidlangan.

Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda oiladagi shaxslararo munosabatlar, nizolar, bola tarbiyasi bo‘yicha to‘plangan uslublar kamol topayotgan yosh avlod ta’limi va tarbiyasida ma’rifiy ahamiyatga ega. O‘zbek xalqi barcha Sharq xalqlari kabi oilaga, bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat bergan. Bu an’ana avloddan-avlodga xalq donishmandligining timsoli sifatida o‘tib kelgan va milliy madaniyatimizda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida hissiy holatlarni o‘rganish masalalari muhim o‘rinni egallaydi. Sharq mutafakkirlari shaxs hissiyoti uning kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roliga alohida e’tibor berganlar. Xususan, Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning oila va oilada shaxslararo munosabat haqida «Ota-ona va farzand burchi», «Ota-onani, oilani va qarindoshlarni hurmatlash» va hokazo kabi nodir hadislari bizgacha yetib kelgan. At-Termiziy «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar yoki ota-onalaringizga qanday yaxshi muomalada bo‘lsangiz, farzandlaringiz ham sizga shunday muomalada bo‘ladi» kabi hadislari bilan hadis ilmining rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan siymolardan biri hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining ota-onalik munosabatlari va farzand tarbiyasiga bo‘lgan psixologik qarashlari qadimiy tafakkurda, asosan, diniy va falsafiy ta’limotlarga asoslangan. Sharqning eng buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Al-Farobiy, Ibn Sino, Avitsenna, Imom G‘azzoliy, va boshqa ko‘plab olimlar tarbiya, ota-onalik va farzandlar tarbiyasi masalalariga katta e’tibor berishgan.

Al-Farobiy, o‘zining falsafiy qarashlarida, farzand tarbiyasini ijtimoiy va axloqiy jihatdan muhim deb hisoblagan. Uning fikriga ko‘ra, ota-ona farzandlarining tarbiyasida axloqiy, ijtimoiy va ilmiy bilimlarni berishga mas’uldir. Al-Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida, farzandlarni tarbiyalashda ota-ona va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlagan. Uning psixologik

qarashlarida ota-onaning bolaga nisbatan mehribonligi va uning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda o‘rni katta ekanligi ta’kidlab o‘tilgan .[1]

Ma’lumki, Kaykovusning «Qobusnoma» asarida inson kamolotida axloq va tarbiyaning roli beqiyosligi ko‘rsatib o‘tiladi. Kaykovus qarashlarida insonni o‘z hissiyotini nazorat qilish muammosi dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Uning odob-axloq qoidalariga qanday rioya etish haqidagi, haqiqatgo‘y, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo‘lishi haqidagi qarashlari, ahamiyatga molik hisoblanadi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Kaykovus o‘z hissiyotini nazorat qilish insonning kamolotini ko‘rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida farzand tarbiyasida bolaning sog‘lig‘i, uning jismoniy va ruhiy holati, ota-onaning bola bilan bo‘ladigan munosabati haqida batafsil fikrlar ham mavjudligi, bola tarbiyasiga qadimdan e’tiborning kuchli ekanligini ko‘rsatadi.[2]

Ibn Sino fikriga ko‘ra, bolalarga yaqin bo‘lish ularni yaxshi ko‘rish va sevish, ularning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onalar bolalarini yaxshi tarbiyalash uchun ularga ma’rifat, axloqiy fazilatlar va bilimlarni o‘rgatishlari kerak deb hisobaydi buyuk bobomiz Ibn Sino ham bolaning tarbiyasida ota-ona muhim o‘rin tutishini aytib o‘tgan .

Imom G‘azzoliy ham, o‘z asarlarida farzand tarbiyasiga katta e’tibor qaratgan. U “Ihyo ulum al-din” asarida, ota-ona va bola o‘rtasidagi aloqalarni axloqiy va ruhiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqqan. G‘azzoliy bolalar tarbiyasining asosiy yo‘nalishlarini muhokama qilib, tarbiya jarayonida ota-onaning bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishining ahamiyatini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, ota-ona farzandlarini nafaqat ilm bilan, balki axloqiy fazilatlar, dinga bo‘lgan hurmat bilan ham tarbiyalashlari kerak .[3]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Sharq mutafakkirlarining tarbiya va ota-ona mas’uliyati haqidagi qarashlari umumiy jihatdan, farzandni ruhiy va axloqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan. Ularning fikriga ko‘ra, bola tarbiyasida muhim omil ota-onaning mehr-muhabbat va axloqiy fazilatlarni o‘zida jamlagan bo‘lishi kerak. Ota-onalar farzandlariga o‘zlari to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlari kerak. Shuningdek, bola tarbiyasida ijtimoiy va diniy qadriyatlar, axloqiy normalar muhim rol o‘ynashini ham unutmasligimiz lozimdir.

[1] Al-Farobiy “Fozil odamlar shaxri”
[2] Ibn Sino “ Al-Qonun Fit Tip”
[3] Imom G‘azzoliy **“Ihyo ulum al-din”**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Farobiy "Fozil odamlar shaxri"
2. Ibn Sino " Al-Qonun Fit Tip"
3. Imom G'azzoliy "Ihyo ulum al-din"
4. Vasila Karimova "Oila psixologiyasi" Toshkent 2012 yil 220 b.
5. U.D.Abdullayeva " O'zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy- psixologik asoslari" 2023